

PENSILVANIYADA MAKTAB BOLALAR UCHUN BERILADIGAN P-EBT TO'LOVI

Pandemiya davrida elektron imtiyozlar (Pandemic-Electronic Benefit Transfer, P-EBT) dasturida maktab o'quvchilari oilalariga COVID pandemiyasi tufayli iste'mol qilish imkoni bo'lmagan maktab ovqatlaridan foydalanish maqsadida oziq-ovqat sotib olish uchun mablag'lar beriladi.

O'quvchilar quyidagi holatda 2021-22 o'quv yili uchun P-EBT to'lovini olishlari mumkin:

- O'quvchilar bepul va arzonlashtirilgan maktab ovqatlari dasturida ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, **va**
- Kunduzgi majburiy ta'lim jarayonida COVID sababli uzilishlar bo'lgan bo'lsa (masalan, ketmaktet 5 kun darsga qatnashmaslik yoki sinflarning yopilishi).

cutt.ly/pebtportal havolasi orqali ota-onalar uchun maxsus portalga* kirib, farzandingiz P-EBT dasturi bo'yicha to'lovni olishga haqli bo'lishini tekshirib ko'ring

- Farzandingiz to'lov olish uchun haqli bo'lishini, agar haqli bo'lsa, to'lov miqdorini ko'rishingiz mumkin.
- Portal **faqatgina** to'lana boshlangan to'lovlarning tafsilotlarini ko'rsatadi. 2021-22 o'quv yili uchun 3 ta to'lov muddati mavjud:
 - 1-to'lov: 2021-yil sentabr-noyabr oylarida foydalanilmagan ovqatlar uchun to'lov: bu ' to'lovlar iyun oyining oxirida kartalarga o'tkazilgan.
 - 2-to'lov: 2021-yil dekabr- 2022-yil fevral oylarida foydalanilmagan ovqatlar uchun to'lov: ' bu to'lovlar iyul oyining o'rtasida kartalarga o'tkazila boshlandi.
 - 3-to'lov: 2022-yilning mart-may oylarida foydalanilmagan ovqatlar uchun to'lov: to'lovlar ' avgust oyida o'tkaziladi.

**E'tibor bering, portal mobil qurilmalardan kirish uchun mos emas*

P-EBT to'lovlari sizning SNAP EBT kartangizga yoki o'tgan yilgi P-EBT kartangizga o'tkaziladi. Hozirgi vaqtda farzandingiz ma'lumotlari SNAP tizimida mavjud bo'lmasa va dastur bo'yicha to'lovga birinchi marta haqli bo'layotgan bo'lsa, sizga yangi P-EBT kartasi yuboriladi. Agar sizda o'tgan yilgi P-EBT kartasi bo'lmasa, uni olish uchun portal orqali so'rov yuborishingiz mumkin.

Muammolarni bartaraf etish bo'yicha maslahatlar uchun flayerning orqa tomoniga qarang.

Agar biror muammo bo'lsa, nima qilish kerak:

Farzandingizning P-EBT to'lovi bilan bog'liq muammo bo'lsa, siz:

- 1-877-343-0179 raqami orqali P-EBT ishonch telefoniga qo'ng'iroq qiling. Qo'ng'iroq qilayotganda qo'lingizda quyidagi ma'lumotlar borligiga ishonch hosil qiling:
 - Farzand(lar)ingizning ism(lar)i
 - Farzand(lar)ingizning tug'ilgan sanasi (sanalari)
 - Ular boradigan maktab yoki maktab hududi
 - Aloqa uchun telefon raqami
 - Aloqa uchun elektron pochta manzili
 - Hozirgi yashash manzili
 - Muammoning qisqacha tavsif
 - Farzandingiz COVID-19 tufayli maktabga bormagan aniq sanalar.
- So'rovni DHS ning <https://tinyurl.com/PEBTproblemPA> saytidagi P-EBT so'rov formasi orqali yuboring.

Esingizda bo'lsin!

- Siz yozgi taomlarni olish bilan birga P-EBT to'lovini **ham** olishingiz mumkin.
- P-EBT to'lovini olish immigratsiya holatiga **ta'sir qilmaydi**.
- Tibbiy va oziq-ovqat yordamini olish immigratsiya holatiga **ta'sir qilmaydi**.

Farzandingiz maktab ovqatini olish uchun ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa-chi?

- Pensilvaniya o'z yozgi P-EBT dasturining USDA tomonidan tasdiqlanishi ustida ishlamoqda va ushbu imtiyoz bo'yicha to'lovlarni kuzda berishni rejalashtirmoqda.
- Agar siz Bepul yoki arzonlashtirilgan taomlar (BAT) uchun ro'yxatdan o'tmagan bo'lsangiz, imtiyozlardan foydalana olmaysiz. LEKIN, shunday bo'lsa ham murojaat qilib ko'ring!
- Imkon qadar tezroq maktabingiz yoki compass.state.pa.us manzili orqali ariza to'ldiring. Agar siz **31-avgustgacha** ariza topshirsangiz, shu yil kuzda yozgi P-EBT to'lovi olish huquqiga ega bo'lishingiz mumkin

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun quyidagi saytga tashrif buyuring:

justharvest.org/pebt-faq

PHILABUNDANCE
Driving hunger from our community

